

Jazoni Ijro Etish Muassasalari Faoliyatini Tashkil Etishda Mdh, Yevropa Davlatlari Va Aqsh Tajribasi

Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish Instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini tashkil etishda MDH, Yevropa davlatlari va AQSH tajribalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jazoni ijro etish muassasalari, ozodlikdan mahrum qilish, jazoni ijro etish koloniyalari, turma, mahkumlar.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab xorijiy mamlakatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarga ta'sir etishning eng samarali. Ayni paytda, istiqbolli usul va metodlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish masalalari turlicha hal etilgan.

Jumladan, Finlyandiya, Shveysariya, Germaniya Federativ Respublikasi, Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlarida jazoni ijro etuvchi muasassa va organlarning har xil tizimlarini shakllantirish, jazoni o'tash davrida mahkumlar bilan muomala qilishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish va qo'llash, mahkumlarni toifalash hamda ularga nisbatan differensial tarzda yonlashuv borasida boy amaliy tajribalar to'plangan.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etishda xalqaro tajribaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek jazo ijrosini takomillashtirish muammolarini 253 o'rganish bir qator xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Birinchi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab xorijiy mamlakatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarga ta'sir etishning eng samarali, ayni paytda, istiqbolli usul va metodlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish masalalari turlicha hal etilgan. Jumladan, jazoni ijro etuvchi muasassa va organlarning har xil tizimlarini shakllantirish, jazoni o'tash davrida mahkumlar bilan muomala qilishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish va qo'llash, mahkumlarni toifalash hamda ularga nisbatan differensial tarzda yondashuv borasida boy amaliy tajribalar to'plangan.

Ikkinchi. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda turli tartibdagi jazoni ijro etish koloniyalari va turmada ijro etilishi bilan respublikamizdagi umumiy holatga yaqin bo'lsa, xorijiy davlatlarda saqlash sharoiti har xil bo'lgan mahalliy va markaziy turmalarda ta'minlanishini ko'rishimiz mumkin.

Uchinchi. Xorijiy davlatlarda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalar faoliyati ustidan boshqaruv asosan adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, so'nggi 10-15 yillar ichida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda ham boshqaruvning xuddi shunday shakliga intilish kuchayib borayotganligi kuzatilmoqda.

To'rtinchi. Xalqaro tajribadan shuni ko'rish mumkinki. Mahkumlarni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davri mamlakatimizdagi kabi shartli ravishda quyidagicha: jazoni o'tash tartibi va shartlariga moslashtirish (adaptatsiya), axloqan tuzatish, ozodlikka chiqishga tayyorlash bosqichlariga ajratish kabi umumiy xususiyatlar mavjud.

Beshinchi. O'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasi jazoni ijro etish muassasasi joylashgan joydagi ko'zga ko'ringan jamoat arboblari (shifokor, pedagog, ishchi va h.z.)dan iborat vasiylik kengashlari faoliyatidan mahkumlarni axloqan tuzatishda, tarbiyaviy ishlarni olib borishda, ularni ozodlikdagi kundalik turmush tarzi hayotiga tayyorlashda, turmular tizimini nazorat qilishning o'ziga xos mexanizmini shakllantirishda, shuningdek ushbu jarayonni amalga oshirishda xususiy jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida ham samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Oltinchi. Xorijiy davlatlarda mahkumlarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda, ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etishda, umuman olganda mahkumlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yakka tartibda yondashuv va differensial saqlash tartibi va sharoitlarini keng joriy etish hamda ularni takomillashtirib borish hozirgi kunda jazo ijrosini ta'minlashda eng samarali usul sifatida e'tibor qaratilayotganligini e'tirof etish zarur.

Yettinchi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribasini qo'llashning huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish,eng avvalo, jazoni ijro etish tizimidagi mavjud muammolarni va hamdo'stlikka a'zo hamda xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek jazni ijro etish muassasalarining ilg'or ishuvullari, maxsus kontingentni tarbiyalash va ahloqan tuzatish ishlarini o'rganish, tahlil va bashorat qilish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, takomillashtirish bo'yicha keng miqyosli ilmiy tadqiqot ishlarining yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Ayni paytda mazkur sohani rivojlantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi negizida maxsus ilmiy tadqiqot instituti yoki markazini ochish zarurati mavjud.

Sakkizinchi. Dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasi keng qamrovli jamoatchilik nazoratisiz fuqarolik jamiyati mavjud bo'la olmasligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, davlat organlari ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi demokratiyaning muhim shartidir. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatning rivojlantirish va davlat qurilishi, ichki va tashqi siyosatning eng ustuvor yo'nalishi etib belgilar ekan, boshqa sohalarda bo'lgani kabi jazoni ijro etish muassasalari faoliyati ustidan ham davlat organlari va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirilini taqozo etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish hozirgi kunga kelib nafaqat bizning respublikamizda, balki xalqaro miqyosda hal qilinishi kerak bo'lgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda jazo ijrosini tashkil qilinishining shakllanishi va tarixi.

O'rta asrlarda Sharqda, G'arbdan farqli ravishda, ozodlikdan mahrum qilish tariqachidagi jazoni ijro etish uchun qasr va qal'a minoralari yoki yer ustidagi qurilishlardan emas, balki an'anaviy zindonlardan foydalanilgan. Yaqin Sharqda ushbu an'ana bugungacha saqlanib qolgan.

Mamlakatimizdagi ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini ta'minlovchi muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi maxsus adabiyotlarda uch bosqichga, ayrim adabiyotlarda besh bosqichga bo'lib tadqiq etilgan.

Agar respublikamizning so'nggi bir-ikki asrlik tarixiga nazar O'zbekistonda jazo ijrosini tashkil qilinishining shakllanishi va tarixi. tashlaydigan bo'lsak, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumida jiddiy o'zgarishlar bo'lganini guvohi bo'lamiz.

Shuni inobatga olib, mamlakatimizda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini ta'minlovchi muassasalar faoliyatining tadrijiy rivojlanish davrini shartli to'rtta davrga bo'linadi:

- Buxoro amirligiga;
- Qo'qon va Xiva xonliklarigacha bo'lgan davrga;
- Chor Rossiya hukmronligi davriga;
- Sobiq ittifoq hukmronligi va Mustaqillik davrlariga ajratgan holda o'rganib, tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

Bunda har bir davrning siyosiy tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy holatini asos qilib olgan holda bosqichlarga ajratish mumkin. Jinoyatjroiya tizimida boshqaruvni shakllantirish va uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan yangilik va islohotlar har bir bosqichning asosiy mezonini bo'la oladi.

Birinchi davr. Jinoyat jazolarini tayinlash va ijro etish tartibi to'liq shariat qonunlari asosida va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini ta'minlash joyi sifatida zindonlardan foydalanilgan Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarigacha bo'lgan davr. Bu davrni yoritishda buyuk davlat arbobi sohibqiron Amir Temur yashab o'tgan va hukmdorlik qilgan yillardagi jinoyat va jazo masalalariga qisqacha to'xtab o'tish o'rinlidir. Professor H. Boboev Amir Temur davlatida qat'iy qonunlar, birinchi navbatda, shariat amal qilganligini ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham sohibqiron zulmkorlarga, oddiy kishilarga asossiz jabru sitam o'tkazadiganlarga nisbatan muhosasiz bo'lish bilan birga, jinoyat va jazo masalalariga nihoyatda jiddiy qaragan. Jazolash yo'li bilan saltanatda intizom saqlash haqida maxsus farmonlar joriy qilgan va aksincha, yaxshi xizmat qilganlarni taqdirlash, mukofotlar berish tuzuklarini ishlab chiqqan edi.

Jazolash masalalarida u quyidagicha yo'l tutgan:

*Birinchi*dan, amir Temur jinoyat jazosiz qolmasligini uqtirdi. U qaysi bir sipohiy haddidan oshib, o'z qo'l ostidagi kishiga zulm o'tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo'lga topshirishni buyuradi, toki dodiga o'shalar yetkazsin.

*Ikkinchi*dan, jinoyatni shariat, urf-odat va Yosog' qonunlariga binoan olib borishni talab qilgan.

Umuman olganda, ushbu davrda faoliyat kursatgan yoxud foydalanilgan jazolash tizimini (agar tizim sifatida e'tirof etilsa) hozirgi kundagi jinoyat jazoni ijro etish tizimi bilan kiyoslash, fikrimizcha, quyidagi asoslarga kura xam biroz notug'ri:

*birinchi*dan, jazolash tizimi markazlashmagan xolda boshkarilgan. Shuningdek, kaysi jazo kandy davlat idorasi tomonidan ijro etilishi va ularning vakolatini katiy belgilab kuyish kabi masalalarga jiddiy e'tibor karatilmagan;

*ikkinchi*dan, o'troq aholi istiqomat qiladigan hududlarda shariat qonunlari, ko'chmanchilar - qozoqlar, qoraqalpoqlar va qirg'izlar yashaydigan joylarda odat xuquqi normalari bilan jazoni tayinlash va utash tartibga solingan;

*uchinchi*dan, utmishdagi jazolash tizimi insonparvarlik tamoyillariga asoslanmagan, ya'ni unda jismoniy azob-ukubat berish (darra urish, oyok-kulini kesish) yoki insonni xdyotdan mahrum qilishning daxshatli usullaridan foydalanish yetakchi urin tutgan.

Ikkinchi davr. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo shariat sudlari va 1864 yil 20 noyabrda kabul kilingan «Jazolar tug'risida»gi nizom asosida chor Rossiyasi sudlari tomonidan belgilangan va ijrosi zindonlar hamda maxsus kurilgan binolarda ta'minlangan chor Rossiyasi xukmronligi davri.

Mamlakatimiz xududida dastlabki maxsus ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarining kurilishi aynan shu davrda boshlandi. Anikrogi, 1870 yilda chor Rossiyasi general-gubernatori Skobelovning farmoniga asosan Samarkand viloyati Kattakurgon shaxrida joylashgan tergov xibsxonasi siyosiy maxkumlarni sakdash uchun klmokxona sifatida tashkil etilgan.

1878 yili chor Rossiyasiniyag yana bir general-gubernatori Chernishevning tashabbusi bilan Kukonda qamoqxona kurilgan. Oktabr inkilobigacha qamoqxonada asosan surgun kilinganlar va tuzumga karashlari zid xamda undan norozi bulgan shaxslar saklangan.

Ayrim xollarda esa ushbu jazoni kullash va ijrosini ta'minlashda Turkiston general-gubernatorining farmoyishlaridan xam foydalanilgan.

Sovet xokimiyatining dastlabki yillarida ushbu muassasa qamoqxona, axlok tuzatish uyi, shuningdek, karovsiz kolgan voyaga yetmaganlar saklanadigan joy sifatida foydalanilgan. Shu

munosabat bilan muassasa tez-tez bir idora buysunuvidan boshka bir idora buysunuviga utkazib turilgan. Ba'zida bevosita Moskva tasarrufida bulib, markazdan boshkarilgan.

1881-yili chor Rossiyasi general-gubernatori Skobelovning shaxsiy otxonasi o'rnida Farg'ona shaxrida qamoqxona tashkil etilgan. Bu muassasadan mustamlaka tuzumga qarshi g'alayon qilgan shaxslarni Sibirga surgun qilishdan avval vaqtincha saqlaydigan joy sifatida foydalanilgan. Sovet xokimiyati yillarida, aniqrog'i 1925-1961-yillarda, muassasa bevosita Moskva tasarrufida bo'lgan.

XIX asr oxirlarida Turkiston ulkasiga yuborilgan chor Rossiyasi knyazi Konstantin va Toshkent uxrida joylashgan O'rta Osiyo general-gubernatori Chernyaevlarning tashabbusi bilan Toshkent qamoqxonasi tashkil etildi. qamoqxonada Oktabr inqilobigacha bo'lgan davrda Rossiyadan surgun qilinganlar xamda boylar sinfidan chiqqan erkin fikrlovchilar saqlangan. Usha paytlarda turma markazlashgan tartibda Rossiyadan boshqarilgan.

Uchinchi davr. Jinoiy jayu tizimida ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosining maqsadi – maxkumni ahloqan tuzatish ekanligi va mahkumlarga nisbatan jismoniy va ma'naviy azob-uqubat yetkazilmasligi birinchi marotaba rasman e'tirof etilgan, shuningdek bu turdagi jazo ijrosini ta'minlovchi ixstisoslashgan davlat organlari to'lato'kis shakllangan, ayni paytda ushbu orgalar asnosida paydo bo'lgan jazoni ijro etish tizimidan ma'lum bir davrda davlat tomonidan ommaviy qatag'on siyosati yurgizilgan sobiq Ittifoq hukmronligi davri.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sunggi 10-15 yillar ichida MDHga a'zo mamlakatlarda jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatini tashkil etish va boshqarish xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda Adliya vazirligi doirasida amalga oshirayotganligi kuzatilmokda.

Bu masalada huquqshunos olim A. Shomansurov tomonidan bildirib utilgan fikrlar qiziqarlidir. Jumladan: «Bu tizimni islox qilishning asosiy shartlaridan biri ularni IIV bo'ysunividan chiqarish, deb hisoblayman. Tizimni Adliya vazirligi ixtiyoriga o'tkazishdan maqsad - jamiyatda jazoni ijro etish buyicha yangi munosabatlarni shakllantirishga asos bulib xizmat qiluvchi yuridik va siyosiy baza yaratishga erishishdir» deb aytib o'tgan.